

# MATEMATIKA ATROFİMİZDA



6  
**SINIF**





**A.KUDRATOVA, H.FUZAILOVA,D.SAIDOVA, M.TUGULOVA,  
G.UZAKOVA, O.BEGMATOVA**

# **MATEMATIKA ATROFIMIZDA**

**Umumiy o'rta maktablarning  
6-sinfi uchun topshiriqlar to'plami**

SAMARQAND – 2021

**UO'K 51(076.1)**

**BBK 22.1**

**M 31**

**Matematikaatrofimizda** (Umumiy o'rta maktablarning 6-sinfi uchun topshiriqlar to'plami). Samarqand, 2021-yil, 100 bet.

***Mualliflar:***

**A.Kudratova, H.Fuzailova, D.Saidova, M.Tugulova,  
G.Uzakova, O.Begmatova**

***Taqrizchilar:***

**Tashtemirova N.N.** – A.Avloniy nomidagi Ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi.

**Gafarova F.J.** – Samarqand shahar 6-maktab oliy toifali "O'zbekiston xalq o'qituvchisi"

**ISBN 978-9943-7832-8-7**

© A.Kudratova, H.Fuzailova, D.Saidova, M.Tugulova, G.Uzakova, O.Begmatova  
© "Fan bulog'i" nashriyoti




## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### Aziz o'quvchi!

Atrofingizga nazar tashlang. Sizni o'rab turgan olamda, har bir faoliyatingizda matematika ishtirok etishini ko'rasiz. Matematika darslarida olgan bilimlaringiz vaqt, uzunlik, yuza, hajm, masofa, o'lchashlar, ulush, foizlar, proporsional munosabatlar, daromad va xarajatlar bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarda kerak bo'ladi.

Ushbu qo'lingizdagi kitobda matematikaning turli vaziyatlarda qo'llanilishiga oid topshiriqlar keltirilgan.Ularni tezlikda yechishga shoshilmang.Mulohaza yuriting, o'rtoqlaringiz bilan kichik tadqiqotlar o'tkazing hamda natijalarингизни muhokama qiling.

Topshiriqlarni bajarish bian chegaralanib qolmang, vaziyatlar bilan bog'liq turli jarayonlarni tahlil qiling.Shunda siz, matematikaning naqadar jozibadorligi va kerakligini his qilasiz.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### MATEMATIKA HAQIDAGI FIKRLARDAN

Aql tarozisida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir.

Abu Ali ibn Sino

Riyoziyot g'oyat bir yuksak fanki, unda bir olam mo'jiza yotadi.

Mirzo Ulug'bek

Aljabr va al-muqobala fani - shunday qoidalar haqidagi fanki, bular yordamida ko'plab noma'lum sonlarni ularga mos ma'lum sonlar orqali bilib oladilar.

Jamshid Al-Koshiy

Matematika fanlar ichidadir shoh,  
Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh.

T.N.Qori Niyoziy

Kuchli aqlga ega bo'lish yetarli emas, eng muhimi - uni yaxshi ishlatabilishdir.

Rene Dekart

Nimaiki qorong'i, shubhali va noto'g'ri bo'lib kelgan bo'lsa, matematika shularning hammasini aniq, to'g'ri va shubha tug'dirmaydigan qiladi.

M.V.Lomonosov





## QULUPNAY



Tengdoshingiz Dildora juda qiziquvchan, mehmatkash, mакtabda ham faol va a'lochi qiz.

Dildoraning akasi chet el safaridan qulupnayning hosildor navidan 5 tup olib keldi va singlisiga "kichik tadbirkor" bo'lishni taklif qildi. Kichik tadbirkor sifatida Dildora qulupnay ko'chatrini ekishi, parvarish qilishi, sonini ko'paytirib, daromad qilishi kerak.



### 1-SAVOL

Bir mavsumda qulupnayning bir ko'chatidan to'rtta yangi ko'chat olish mumkin. Qulupnay ko'chatining hosildorlik davri ikki yil ekanligini hisobga olib, Dildora ko'chatlar sonini 200 taga yetkazish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA



### 2-SAVOL



Kichik tadbirkor sifatida Dildora 3 yilda ko'chatlar sonini nechtaga yetkazadi?

### 3-SAVOL

Dildora daromadini ko'paytirish uchun nechanchi mavzumdan boshlab, 100 ta ko'chatni olib qolib, qolganini sotuvga chiqara oladi?

### 4-SAVOL

Ko'chatlarni sotuvga chiqargan birinchi mavsumda Dildora nechta ko'chat sotadi?





## TUG'ILGAN KUN DASTURXONI

Azimjon muchal yoshiga to'lishi munosabati bilan do'stlarini mehmonga taklif qildi. Onasi va opasiga tug'ilgan kun dasturxonini tuzatishga yordam berdi.

## 1-SAVOL

Opasi olib kelingan mevalarni jadvalda berilgan shartlar asosida dasturxonga teng taqsimlashi uchun ko'pi bilan nechta meva soladigan idish olishi kerak?



Mevalar	Kilogram	1 kg da dona	Mevalarni taqsimlash shartlari
Olma	5	7-8	kamida 3 ta
Shaftoli	3	6-7	2 tadan ortiq emas
Qaroli	2	13-15	kamida 5 ta
Banan	3	3-4	ko'pi bilan 4 ta
Kivi	3	7-8	ko'pi bilan 3 ta





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 2-SAVOL




Tug'ilgan kunga 20 kishi taklif qilingan bo'lsa, Azimjon yaxshi ko'rib istemol qiladigan salat uchun opasi qancha mahsulot tayyorlashi kerak.

Fransuzcha salat (6 kishiga)	
<b>Maxsulot</b>	<b>Miqdor (dona,g)</b>
<b>Mol go'sht</b>	<b>200g</b>
<b>Qizil lavlagi</b>	<b>150 g</b>
<b>Sabzili salat</b>	<b>150 g</b>
<b>Tuzlangan bodiring</b>	<b>2-3 dona</b>
<b>Somoncha shaklida qovurilgan kartoshka</b>	<b>150 g</b>
<b>Karam</b>	<b>150 g</b>
<b>Mayonez</b>	<b>200 g</b>
<b>Tuz</b>	<b>Ta'bga ko'ra</b>

### 3-SAVOL

Azimjon o'qiydigan sinfda 17 nafar o'g'il bola va 18 nafar qiz bola o'qiydi. Tug'ilgan kuniga kelgan sinfdoshlarining kamida nechta qiz bola deb o'ylaysiz?






## SUPERMARKET

Supermarketga fleykalarda tuxum olib kelindi. Menedjer ularni sotuvga teng miqdorda 5talik, 10talik, 15talik va 30talik o'ram qilib taqsimlash kerakligini aytdi.


Bir ozdan so'ng menedjer Supermarketga keltirilgan maxsulotlarni qayd qilish daftariga 5 talik o'ramlar soni 10 ta ekanligini aniqlab, olib kelingan fleykalar sonini yozib qo'ydi.



### 1-SAVOL



Nima deb o'ylaysiz Supermarketga nechta fleykada tuxum olib keltingan?






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### KITOB


Keling birgalikda kitob nashr qilish jarayonida ishtirok qilaylik.

Sizga 148 betlik kitobni 100 nusxada chop qilish uchun A4 formatdagi oq qog'oz sotib olish topshirig'i berildi.

Idora ashyolari do'koniga borsangiz sizga quyidagi ma'lumotlar taqdim qilinadi.



Soni (dona)	Narxi (so'm)
50	5000
100	8000
500	30000








## 1-SAVOL

Kitobning o'lchami A5 formatga to'g'ri kelsa, buyurtmani bajarishingiz uchun nechta oq qog'oz sotib olishingiz kerak?

## 2-SAVOL



Taqdim etilgan narx asosida eng kam harajat qilish imkonini hisoblab chiqing. Fikringizni asoslab bering.






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### GULZOR



Maktab hovlisida doira shaklidagi ikkita maydonchaga ekish uchun gullar olib kelindi.




#### 1-SAVOL

Gulzorga gullar to'liq ekilganini hisobga olib, 700 ta ko'chatni nechta gulzorga ekish mumkinligini ayting?

#### 2-SAVOL


Agar gulzorlardagi gullar berilgan tartibdagi ketma-ketlikda ekilsa, aytingchi oxirgi gulzordagi gullar qaysi ketma-ketlikda ekiladi?






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

1.



2.



	Ha	Yo'q
<b>1-gulzor</b>		
<b>2-gulzor</b>		

### 3-SAVOL

Oxirgi gulzorga gullar to'liq ekilishi uchun yana nechta gul keltirishi kerak deb hisoblaysiz?

### 4-SAVOL

Qizil gul narxi 2500 so'm, sariq gul narxi 2300 so'm bo'lsa, har bir rangdagi gul uchun qancha xarajat qilinadi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### IKRA

Yoz mahsulotlarini qishga g‘amlash maqsadida siz har yili onalarингизга banka yopish jarayonlariga yordam berasiz.

Bozorda meva va poliz maxsulotlari chakana yoki ulgurji narxlarda sotiladi.



#### Chakana narx

- 1 kg pomidor – 2000 so‘m
- 1 kg baqlajon – 2000 so‘m
- 1 kg bulg‘or qalampiri – 2500 so‘m
- 1 dona sarimsoq – 2000 so‘m
- 1 bog` ko‘kat – 1500 so‘m

#### Ulgurji narx

- 1 kg pomidor – 1500 so‘m  
(bir qutida 25-27 kg)
- 1 kg baqlajon – 1700 so‘m  
(bir xaltada 21-22 kg)
- 1 kg bulg‘or qalampiri – 2200 so‘m  
(bir xaltada 17-18 kg)

#### Ikra tayyorlash uchun kerakli mahsulotlar

15 kg pomidor, 10 kg baqlajon va bulg‘or qalampiri, 2-3 bosh sarimsoq piyoz , 2 bog‘lam ko‘kat.





### 1-SAVOL

Xarid qilingan umumiy masalliqning 1 kg 1 litrli bankaga yopilishini hisobga olsak, 50 kg massaliqdan ikra tayyorlashingiz uchun, siz xaridni qanday amalgalashirasiz? Asoslab bering.

### 2-SAVOL

Tayyorlangan massalliqni yuvilgan va sterillangan teng sondagi 1 litrli va 1,5 litrli bankalardan nechta yopishingiz mumkin?



### 3-SAVOL

Agar sizda ayni damda 35 ta qopqoq bo'lsa, ikrani qaysi bankalarga yopasiz? Mumkin bo'lgan barcha usullarni ko'sating.






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### BIZ IQTIDORLI AVLODMIZ

Nozima Telegramm kanalida o'tkazilayotgan "Biz iqtidorli avlodmiz" ko'rik - tanlovida ishtirok qilmoqda. Tanlov shartiga ko'ra u uch bosqichning har biridan kamida 125 ball yig'ishi kerak (1 ball 1 ovoz).




#### 1-SAVOL

Sinfdoshlari Nozimadan necha ball yiqqanini so'raganlarida u "Yiqqan ballim 2 ga, 3 ga, 5 ga, 9 ga bo'linadigan 700 dan katta va 1000 dan kichik bo'lган son" deb javob berdi.

Aytingchi Nozima necha ball yiqqan bo'lishi mumkin?

#### 2-SAVOL

Birinchi o'rinni olgan tengdoshi 817 ball to'plagan bolsa, Nozima necha ball farq bilan ikkinchi o'rinni egalladi?





## IQTIDORLI BOLA

Alisher matematika faniga qiziqadi va shu fan bo'yicha doimiy ravishda olimpiadalarga qatnashib boradi.

U qatnashayotgan navbatdagi onlayn olimpiada shartiga ko'ra, ishtirokchilarga har bir to'g'ri javob uchun 10 ball beriladi, har bir noto'g'ri javob uchun esa umumiyl balldan 5 ball ayiriladi.

### 1-SAVOL

Agar Alisher taqdim etilgan 20 ta savoldan 155 ball to'plagan bo'lsa, u nechta savolga to'g'ri javob bergan deb hisoblaysiz?



### 2-SAVOL

Olimpiada natijalariga ko'ra birinchilikni olgan ishtirokchi 170 ball top'lagan. Agar Alisherning to'g'ri javoblari soni tengdoshidan bitta ko'p bo'lganda, u necha ball bilan ustunlik qilar edi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA


### MAYIZ

Respublikamiz hududlarida ko‘pgina tadbirkorlar uzumchilik bilan shug‘ullanadilar. Asosiy daromadini mayizni eksport qilishdan olishadi.



#### 1-SAVOL

Agar siz tadbirkor bo‘lsangiz va sizga xorijga eksport uchun 700 kg mayiz buyurtma berilsa, qancha uzum zaxira qilishingiz kerak bo‘ladi? Ma’lumki, uzumning – qismi mayiz bo‘ladi.






## 2-SAVOL

Uzumzor bo'yiga birinchi va oxirgi tup oralig'i 90 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydon. Ko'chatlar davlat standartiga ko'ra,  $3 \times 3$  m masofada ekiladi va har bir tup o'rtacha 15 kg gacha hosil beradi.

Buyurtmani bajarishga kerak bo'ladigan uzum zaxirasini to'plash uchun siz qanday maydongagi uzumzorga ega bo'lishingiz kerak?



## 3-SAVOL

Quritilgan mayizning 60% yuqori sifatli, 30% o'rtacha sifatli, 10% past sifatli mayiz ekanligini inobatga olib, mahsulotni quyidagi narxda sota olasiz.

Shu mavsumda qancha daromad olishingizni hisoblab chiqing.

Yuqori sifatli	O'rtacha sifatli	Past sifatli
70000 so'm	35000-40000 so'm	15000-10000 so'm





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### PALOV

Palov xalqimizning sevimli taomi hisoblanadi. Tadbirlarimiz, to'y marosimlarimiz va har qanday mehmondorchiliklarimiz palovsiz bo'lmaydi. Shu bois bo'lsa kerak, oshpazlar o'rtasida palov pishirish bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi.



Palov tayyorlashda 1kg guruchga 1kg sabzi solinadi. Solinadigan guruchga nisbatan go'sht 2 marta kam, yog' 4 marta kam, piyoz esa 8 marta kam ishlatiladi.





### 1-SAVOL



Oshpazlar to'yga 20 kg guruchdan palov tayyorlash uchun masalliqlar ro'yxatini tuzishdi. Aytingchi sabzi, go'sht, yog' va piyozning har biridan necha kilogramm sotib olishi kerak bo'ladi?

### 2-SAVOL

Tadbirlarda oshpazlar osh pishiriladigan qozonlarni pudlarda o'lchashadi. 1 pud 16,38 kg bolsa, 1 pud osh tayyorlash uchun qancha masalliq kerak bo'ladi?

### 3-SAVOL



Rejalaشتirib ko'ringchi, agar 1 kg guruchdan tayyorlangan 2 tovoq osh 4 kishiga yetsa, 1 pud oshga necha kishini taklif qilasiz?





## CHEGIRMALAR MAVSUMI

Chegirmalar mavsumida qator kiyim-kechak do'konlarida 5%, 10%, 20%, 30% chegirmalar e'lon qilindi.

<b>Mahalliy mahsulotlar</b>	<b>30%-50%</b>
<b>Xorijiy mahsulotlar</b>	<b>5%-20%</b>

**Chegirma 30%**



**100 000 so'm**

**Chegirma 10%**




**250 000 so'm**

**Chegirma 30%**



**80 000 so'm**

**Chegirma 15%**



**120 000 so'm**





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

Chegirma 35%



Chegirma 10%



Lola ko'ylak, sumka, poyafzal xarid qilish niyatida do'konlarni aylandi. O'ziga chegirmasi 30% bo'lgan ko'ylak, 15% poyafzal, 10% sumka tanladi.

### 1-SAVOL

Lola qanday mahsulotlar tanladi? (mahalliy yoki xorijiy)

Mahsulot	Mahalliy	Xorijiy
Ko'ylak		
Sumka		
Poyafzal		





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 2-SAVOL

Lola necha soʻmlik xarid qildi?  
Asoslab bering.



### 3-SAVOL

Agar Lola doʼkonga 1200000 soʼm bilan borgan boʼlsa, singlisiga yuqoridagi mahsulotlardan qaysilarini xarid qila oladi?

	Koʼylak	Poyafzal	Sumka
<b>Mahalliy</b>			
<b>Xorijiy</b>			





## URUG'LARNING UNISHI

Ta'lrim olish jarayonida darsliklarimizdan hayotimizda kerak bo'ladigan juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Keling biologiya darsligingizdagi quyidagi ma'lumot bilan tanishaylik.

Urug'lar biologik xossasiga ko'ra turli muddatda yetiladi va turli sharoitda unib chiqadi. Urug'ning unib chiqish xususiyati ba'zi o'simliklarda bir yil saqlansa, boshqalarida 10–100 yil ham saqlanishi mumkin.

Har bir urug'ning unib chiqishi uchun ma'lum sharoit zarur. Aks holda u unmaydi. Birinchi navbatda, ular ma'lum muddatli tinim davrini o'tishi zarur. Urug'lar suvni o'ziga shimmib olib, bo'rta boshlaydi va katta bosim ostida o'sadi. Ana shu bosim kuchi ostida urug'lar po'stini yorib yuboradi.

	qovun	+15°
	g'o'za	+12°
	pomidor	+10°
	makkajo'xori	+8°
	karam sholg'om sabzi	+5°
	bug'doy	+3°
	no'xat rediska	+2°
	beda javdar	+1°


**Urug'lar unib chiqishi  
uchun zarur harorat**

Demak, har bir urug'ning o'z unish davri va harorati bo'lar ekan.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA



### 1-SAVOL



Shivit urug'ini mart oyi kunduzgi  $+6^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lмаган haroratда екиси тавсиya qилинади. Chizmada mart oyida havoning o'zgarish grafigi keltirilган.

Qaysi kunlari urug' sepish mumkin deb hisoblaysiz?

### 2-SAVOL

Agar martning birinchi kuni payshanbagaga to'g'ri kelgan bo'lsa, siz esa faqat dam olish kunlari ekish imkoniyatiga egasiz.Oyining qaysi kunida shivit urug'ini eka olasiz?





## TIKUVCHI QIZ NOZIMA

Nazira opa nevarasi Nozima bilan uydagi to'planib qolgan bo'lak matolardan quroq ko'rpa cha va dasturxon tikishdi.



### 1-SAVOL

Agar siz ham Nozima buvisi bilan tikkан ko'rpa cha andozasi asosida 3 m li ko'rpa cha tikishni boshlasangiz nechta quroqdan foydalanasiz?



### 2-SAVOL

Andozadagi ko'rpa cha chetidagi hoshiyali qismi 10 cm bo'lsa, siz tikkан ko'rpa cha qanday yuzani egallaydi?





## YOSH SHAXMATCHILAR MUSOBAQASI

Maktablar o'rtasiga o'tkazilgan an'anaviy "Yosh shaxmatchilar" musobaqasida 256 nafar o'quvchilar qatnashishdi.

Agar shaxmat musobaqalarini kuzatgan bo'lsangiz musobaqa qatnashchilari ikki kishilik guruhlarga bo'lingan holda ishtirok etishadi. Har bir bosqichda yutqazgan ishtirokchi musobaqani tark etadi. Keyingi bosqichlarda yana qayta guruhlar tuzilib musobaqa davom etadi.





### 1-SAVOL

Hisoblab ko'ringchi o'yin  
nechta bosqichda bo'lib o'tdi?



### 2-SAVOL

O'yinning 4-bosqichida necha nafar o'quvchi  
ishtirot etdi?

### 3-SAVOL



Aziz o'quvchi siz ushbu shaxmat musoboqada  
qatnashib, g'olib bo'lishingiz uchun kamida necha nafar  
ishtirotchi bilan o'ynashingiz kerak?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### CHUCHVARA

Barchamiz onamiz pishirgan taomlarni sevib istemol qilamiz. Shaxnozaning onasi pazanda, juda mazali ovqatlar pishiradi. Shaxnoza bu ishlarda onasiga yordam beradi.

Qo'shimcha mablag' topish maqsadida ular chuchvara tugib, do'konlarga topshirishadi.



#### 1-SAVOL

Shaxnozaning onasi chuchvara uchun tayyorlagan zuvalani diametri 60 cm doira shaklida yoyib, undan o'lchamlari  $5 \times 5$  cm bo'laklar kesib oladi.

Aytingchi, bitta zuvaladan nechta chuchvara tayyorlash mumkin?

#### 2-SAVOL


Ular yarim tayyor chuchvaralarni qadoqlarga 50 donadan joylashtirib, do'konlarga topshirishadi. Shaxnozalar 12 qadoq chuchvara topshirish uchun nechta zuvala yoyishlari lozim?





## YO'L HAQI HISOBIDAGI JUMBOQ

Dugonam yo'lida kelayotib qiziq vaziyatga duch keldi.



A bekatda damas avtotransportiga dugonam va 1-yo'lovchi chiqdi;

B bekatda 1-yo'lovchi tushdi, 2-yo'lovchi chiqdi;

C bekatda 2-yo'lovchi va dugonam tushdi.

### 1-SAVOL

Jumboq B bekatda boshlandi, 1-yo'lovchi yo'l haqiga 50000 so'mlik uzatdi, haydovchida 15000 so'm, dugonamda esa 42000 so'm bor edi. Haydovchi bilan dugonam kelishgan holda 1-yo'lovchiga qaytimini berib, B bekatda tushirishdi. Jumboq esa B bekatda mingan 2-yo'lovchi yordamida yechildi.

Sinfdoshlaringiz bilan vaziyatni tahlil qilib, jumboq nimada ekanligini aniqlang.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### BOLALAR BOG`CHASI



Bolalar bog'chasida sog'lom ovqatlanish me'yorlari asosida har bir tarbiyalanuvchiga bir kunda 2 ta banan yoki 3 ta olma, yoki 1 ta banan va 2 ta olma berish tartibi o'rnatilgan. (Bolalar bog'chasi haftada 5 kun ishlaydi).

#### 1-SAVOL

Agar shu hafta davomida har bir bola jami 7 ta banan yegan bo'lsa, u olmadan nechta yegan deb hisoblaysiz?

#### 2-SAVOL

Agar keyingi hafta davomida har bir bolaga 2 ta olma berilsa, u nechta banan yeyishi mumkin?

#### 3-SAVOL

Bog'chadagi 50 ta tarbiyalanuvchiga ikki hafta davomida qancha meva xarid qilinadi?






## YOSH HUNARMANDLAR

Maktabda 5-9 sinf o'g'il bolalari o'rtasida o'tkazilgan "Yosh hunarmandlar" ko'rik - tanlovida ular yoshiga mos quyidagi topshiriqlar berildi.


### Narvon yasash

1-topshiriq sharti: Narvonning kengligi 55 cm, zinalari orasi 20 cm. Eng kichik sinf 1,2 m li narvon yasaydi, har bir yuqori sinf uchun 2 ta zina qo'shiladi.



### 1-SAVOL

Aytingchi, har bir sinf o'ziga necha metr reyka ajratib oladi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA



Sinf	Reyka (metr)
5-sinf	
6-sinf	
7-sinf	
8-sinf	
9-sinf	

### Devor terish

2-topshiriq sharti: Eng kichik sinf 1 m devor, har bir yuqori sinf uchun 0.5 m devor qo'shiladi. Belgilangan 15 daqiqada eng baland devor tergan sinf g'olib hisoblanadi.

8-sinf o'quvchilari 9-sinf o'quvchilaridan 3 ta ortiq g'isht terish bilan ustinlikka ega bo'lishdi.

9-sinf o'quvchilari 3 qator tergan bo'lishsa, 8-sinf o'quvchilari necha dona g'isht terishdi (2 ta yarimta g'isht bir butun deb hisoblansin)?





## MILLIY LIBOS TIKISH

6-sinfda 11 ta qiz va 19 ta o'g'il bola o'qiydi. Navro'z bayramida qiz bolalar uchun milliy raqsga atlasdan libos tiktirish maqsadida tikuvchiga murojaat qilindi.

Tikuvchi olingan matodan tikish mumkin bo'lgan imkoniyatlarni taqdim qildi.



1 donasi  
12 000 so'm

1,8 m mato ketadi, tikish puli 35 000 so'm. Olingan mato 10 ta qizga yetadi

1,5 m mato ketadi, tikish puli 30 000 so'm. Olingan mato 11 ta qizga yetadi

Raqsga tushadigan sinfdagi barcha qizlar uchun siz qaysi imkoniyatni tanlaysiz?

1m mato 26000 so'm.





## SOG'LOM TURMUSH TARZI TARG'IBOTI


Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida Prezident farmoni imzolandi.

Farmonga ko'ra, O'zbekiston hududida bir sutka davomida 10000 va undan ortiq qadam yurgan 18 va undan yuqori yoshdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarosining platformadagi elektron hamyoniga 3 ming so'mdan pul tushadi.



Nodirning akasi sog'lom turmush tarziga amal qilish va qo'shimcha daromad topish maqsadida har kuni 10000 qadam yurishni rejalashtirdi. U ko'p qavatli uylarning 4-qavatida joylashgan xonardonidan bir kunda ikki marta do'konga chiqib keldi. Uyiga qaytayotib birinchi qavatdan ikkinchi qavatgacha 17 qadam yurganini hisobladi.

Nodirning akasi bir kunda bosib o'tgan 10000 qadamning necha qismini zinalarda yurgan?





## QO'SHIMCHA DAROMAD

Dilshod chorvachilikka juda ham qiziqadi. Chorvadorlarning tajribasida mollarini sotib olish uchun eng qulay vaqt yanvar va fevral oylari. Sotish uchun esa avgust oyi hisoblanadi.

Dilshod otasi bilan qo'shimcha daromad topishning quyidagi yo'llarini ko'rib chiqmoqda.



**1-hol.** Chorva mollarini sotib olib, cho'ponga "vaqtinchalik ijara"ga berib boqtirish.

Nº	Chorva mollar	Yoshi	Sotib olish narxi (so'm)	Ijara haqi	Muddati	Sotish
1	Ho'kiz	7 oylik	4 mln 100 ming	100 ming	Mart-noyabr	7 mln 500 ming
2	Tana	8 oylik	3 mln 800 ming	100 ming	Mart-noyabr	7 mln
3	Ho'kiz	7 oylik	4 mln 100 ming	100 ming	Mart-noyabr	7 mln 500 ming
4	Ho'kiz	7 oylik	4 mln	100 ming	Mart-noyabr	7 mln 500 ming
Jami						






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

**2-hol.** Chorva mollarini o'zining uyida boqish.

Nº	Chorva mollari	Yoshi	Sotib olish narxi (so'm)	Oylik xarajat (so'm)	Muddati	Sotish (so'm)
1	Ho'kiz	7 oylik	4 mln 100 ming	375 ming	fevral-dekabr, yanvar-iyul	15 mln 500 mimg
2	Tana	8 oylik	3 mln 800 ming	375 ming	Fevral-avgust	7 mln 500 ming
3	Ho'kiz	7 oylik	4 mln 100 ming	375 ming	fevral-dekabr, yanvar-iyul	15 mln 500 mimg
4	Ho'kiz	7 oylik	4 mln	375 ming	fevral-dekabr, yanvar-iyul	15 mln 200 mimg
Jami						

## 1-SAVOL

Nima deb o'ylaysiz, Dilshod va otasi qaysi holda ko'proq daromad olishadi? Fikringizni asoslang.





## KOLLEKSIONER DO'STLAR

Toxir va Shaxzod qadrdon do'stlar. Bu ikki do'st o'z qiziqishlariga ko'ra ma'lum bir turdag'i buyumlar yig'ishadi.

Toxir o'yinchoq avtomobillar, Shaxzod esa tangalar yig'ishga qiziqadi.

Do'stlar kimning kolleksiyasi ko'p ekanligini aniqlash uchun matematik boshqotirma shaklida ma'lumot taxlashga kelishib olishdi.

Shaxzodning tangalar kolleksiyasi haqidagi boshqotirmasi.

O'zbekiston tangalari. *Ma'lumot:* hech biri 4 tadan ko'p emas.






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

Tangalar	Soni	Jami (so'm)
1 so'm		3
5 so'm		20
10 so'm		20
50 so'm		100
100 so'm		200
200 so'm		200
500 so'm		500
<b>Jami</b>		<b>1043</b>


Xorijiy davlatlar tangalari. Rasmlarga e'tibor bering va jadvalni to'ldiring.

Pul birligida	1	2	3	5	10	15	20	50	100	Jami
Soni (dona)										






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

Toxirning o'yinchoq mashinalar kolleksiyasi haqidagi boshqotirmasi.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

T/r	Nomi	Boshqotirma	Nechta
1.	Micro	Jami mashinalarning — qismini tashkil qiladi	
2.	Sedan	Eng kichik mukammal songa teng	
3.	Hatchback	1 va 2 mashinalarning o'rta arifmetigiga teng	
4.	Coupe	2 va 3 mashinalarning EKUB ga teng	
5.	Station wagon	2,3 va 4 mashinalar sonidan 3 marta kam	
6.	Roadster	Juft tub songa teng	
7.	Cabriolet	Eng katta bir xonali songa teng	
8.	Muscle sar	2021-yilning raqamlar yig'indisiga teng	
9.	Sport car	Shaxzodning O'zbekiston tangalari soniga teng	
10.	Super car	Eng kichik natural songa teng	
11.	Limousine	O'zining oynalari sonining yarmiga teng	
12.	Cuv	8- va 9- mashinalar o'rta arifmetigining 10 dan 2 qismiga teng	
13.	Pickap	Fasllar soniga teng	
14.	Suv	3,54 sonini yaxlitlanganiga teng	
15.	Minivan	$1*2*3*4*5-1*2*3*4*4,5=?$	
16.	Van	10- va 11- mashinalar sonining musbat ayirmasiga teng	





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

17.	Campervan	EKUB (3,6,9)	
18.	Bus	EKUK (3,6,9)	
19.	Monster truck	Bir xonali sonlar yig'indisining - qismiga teng	
20.	Mini truck	18-mashinaning oynalar sonini o'zining g'ildiraklar nisbatiga teng	
21.	Tkuck	Sport car mashinalarining g'ildiraklari sonidan ushbu mashinalar g'ildiraklari soni 6 taga ko'p	
22.	Big truck	24 ning nimchorak qismicha	

### 1-SAVOL

Har bir bolaning kolleksiyasi sonini aniqlang.

Toxir	
Shaxzod	

### 1-SAVOL

Siz qanday buyumlar yig'ishga qiziqasiz? O'zingiz yig'gan buyumlar to'g'risida qiziqarli boshqotirma tayyorlang va sinfdoshlaringizga taqdim qiling.





## VAK-MAK MAKKAJO'XORISI

Siz sevib iste'mol qiladigan Vak-Mak makkajo'xorisi haqida ma'lumotlarga egamisiz?


Unda bu ma'lumotlar sizni qiziqtirishi aniq. Vak-Mak makkajo'xorisi qandli diabetni nazorat qilish, yurak hamda alsgeymer kasalligi, kamqonlikni oldini olish, qon bosimini me'yorda saqlash, ko'z nuri va terini yaxshilash, suyak baquvvatligini oshirish kabi xusisiyatlarga ega.



### 1-SAVOL

Siz 10 ar yerga Vak-Mak makkajo'xorisini ekdingiz. Shu yerdan qancha hosil olishingizni hisoblab chiqaylik.

Bir qutida 5000 dona urug' (unishi 98%) bor va u olti ar(sotix) yerga yetadi (bir quti narxi 375 ming so'm). Bunda har bir urug'dan ikki donadan Vak-Mak makkajo'xorisini yetishtirish mumkin (hosilning donasi 900 so'm). 5 ar ga bir qop o'g'it ketadi.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA



### 2-SAVOL

Yiqqan hosiliningizni sotganingizdan so'ng siz qancha sof foydaga ega bo'lasiz? (*sof foyda=jami mahsulot summasi-xarajatlar summasi*)

Qo'shimcha ma'lumot:  
Bunda 1 ar yerga 8000 so'm texnika yoki ishchi kuchi uchun xarajat qilasiz. 1 qop o'g'it 170000 so'm.





## YOSH TEXNIKLARGA YORDAM

Bobur va Zuhriddin ismli do'stlaringiz sizdan yoritgich yasab berishingizni iltimos qildi.

Yoritgich yasash uchun quyidagi jadvaldagi kerakli ehtiyyot qismlar haqida ma'lumot berilgan.

Svetodiod		Resistor		Quvvat toshi		Knopka	Sim	Yelim (dona)
Quvvati	Narxi (so'm)	Quvvati	Narxi (so'm)	Quvvati	Narxi (so'm)	Narxi (so'm)	Narxi (so'm)	Narxi (so'm)
1,2 V	200	5 A	100	1,5 W	1000	1000	200	100
3,5 V	250	10 A	150	3,7 W	2000	1000	200	100
5 V	300	20 A	200	4,2 W	3000	1000	200	100





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 1-SAVOL


Boburda 3000 so‘m, Zuhriddinda esa 5000 so‘m pul bor. Har bir bolaga alohida yoritgich yasab berishingiz uchun eng qulay variantda quyidagi jadvalni to‘ldiring .

	Svetodiod		Resistor		Quvvat toshi		Knopka	Sim	Yelim (dona)
	Quvvati	Narxi (so‘m)	Quvvati	Narxi (so‘m)	Quvvati	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)
Bobur									
Zuhriddin									

### 2-SAVOL

Nima deb o‘ylaysiz, eng kami va eng ko‘pi bilan qancha mablag’ga yoritgich yashash mumkin?

	Svetodiod		Resistor		Quvvat toshi		Knopka	Sim	Yelim (dona)	Jami puli
	Quvvati	Narxi (so‘m)	Quvvati	Narxi (so‘m)	Quvvati	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)	Narxi (so‘m)	
Eng kam										
Eng ko‘p										





## O'TKIRJONNING YOSHI NECHADA?

Tengdoshingiz O'tkirjon turli tadqiqotlar o'tkazish, hayot va fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda kashfiyotlarini o'rtoqlari bilan bo'lishishni yaxshi ko'radi. U  $4 \times 4$  shakldagi jadvaldagi toq sonlar yig'indisi buvisining yoshi,  $2 \times 2$  jadvalchalar ichidagi 3 ga karrali sonlar yig'indisining eng kichigi ukasining yoshi, ularning yoshlari nisbati o'zining yoshi ekanligini aniqladi.



46	12	3	11
18	5	18	10
13	4	7	9
17	6	2	19

### 1-SAVOL

O'tkirjonning buvisi, ukasi va o'zining yoshi nechada?

### 2-SAVOL

Siz ham O'tkirjon kabi oila a'zolaringiz yoki yaqinlaringiz yoshini topish uchun o'zingizning boshqotimangizni tuzing.







## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### AVTOMOBIL ISHLAB CHIQARILISHI

Sizga taqdim etilgan quyidagi ma'lumotlarda 2019, 2020, 2021-yillarning yanvar - aprel oylarida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar soni (donada) keltirilgan.



### 1-SAVOL

Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra yillar kesimida tartibblashtiring. Tahlil natijalaringizni izohlang.


Yil oxiriga qadar qaysi yengil avtomobilarga talab yuqori bo'lgan deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.





## SABZAVOT YETISHTIRILISHI

Respublika qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi o'rinda turadi. Dehqonchilikda agrotexnikaning ilg'or usullarini qo'llash, ekinlarning hosildor navlarini yaratish, navlarni muttasil yangilash va nav almashtirish, o'g'itlardan samarali foydalanish, o'simliklar himoyasi xizmatini yo'lga qo'yish, ekin maydonlari tarkiblarini o'zgartirish tufayli yuqori natijalarga erishiladi.





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

Sizga dehqonchilikdagi sabzavot yetishtirishning 1 yillik tahlili taqdim etildi.

### 1-SAVOL

Sabzavotlarni yetishtirish asosan qaysi xo'jalik toifasiga to'g'ri keladi?



### 2-SAVOL

Mahsuldorligiga ko'ra qaysi xo'jalik toifasi yetakchilik qiladi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA


# YANGI TASHKIL ETILGAN KORXONA VA TASHKIOTLAR

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-aprel holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) yangi tashkil etilgan korxonalar soni quyidagi taqdimotda keltirilgan.

### Yillar kesimida soni



### Yillar kesimida o'sish sur'ati



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 1-SAVOL



Yillar kesimida eng katta ehtiyoj shakllantirgan soha yo'nalishini tahlil qiling.

### 2-SAVOL

Qaysi yillar oralig'ida yangi korxona va tashkilotlar tashkil etilishi keskin oshgan?



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar yo'nalishida 2020-yilda nechta korxona va tashkilot tashkil etilgan?

### 3-SAVOL

Siz shu sohalarning qaysi yo'nalishida ishlashni xohlardingiz? Nima uchun?

### 4-SAVOL





## SAYOHAT


Tengdoshingiz Akmal Toshkentda yashaydi. U fizika va geografiya fanlariga qiziqadi. Yozgi ta'tilda u oilasi bilan Buxorova Samarqandga sayohatga borishmoqchi.

## 1-SAVOL

Akmal sayohat davomida necha km masofani bosib o'tishlarini aniqlash uchun 1:50000 masshtabdagi haritadan viloyatlar orasidagi masofani o'lchadi va 70 km/h tezlik bilan harakatlanganda necha soatda yetib borishlarini hisoblab chiqdi.

Akmal oilasi bilan necha km masofani bosib o'tadi deb hisoblaysiz?

Ular birinchi qaysi viloyatga borishadi?





## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 2-SAVOL

Agar Akmal Samarqand va Buxoroga aynan quyoshning bir xil ko'tarilgan vaqtida borgan bo'lsa, quyidagi suratlardan Minorai Kalon minorasining balandligini toping.



### 3-SAVOL

Akmal nur va soyaning harakatiga qiziqib qoldi va bo'sh vaqtida 150 cm li ustunning yerdagi soyasi quyoshning harakati va vaqtga bog'liq holda o'zgarishini kuzatdi.

U Go'ri Amir maqbarasi va Minorai Kalon minorasi oldiga borganda soat necha bo'lgan?

Soat	Soyaning uzunligi
08 <sup>00</sup>	300 cm
09 <sup>00</sup>	200 cm
10 <sup>00</sup>	150 cm
11 <sup>00</sup>	100 cm
12 <sup>00</sup>	75 cm
13 <sup>00</sup>	65 cm





## QO'YCHILIK FERMASI

Bahrom qo'ylarning zotdor turlarini ko'paytirish maqsadida sentabr oyida chorvachilik fermasini tashkil qildi. U yuzi 168 kv.m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonida qo'ylar uchun qurmoqchi bo'lgan qo'yxonani panjara bilan o'ramoqchi.

Maydonni panjara bilan o'rash uchun har 2 m ustun qoqilishi va bitta qo'y uchun 0,5 kv.m joy kerakligi ma'lum.



### 1-SAVOL

Maydonga eng kam miqdorda panjara ketishi uchun, qo'yxonaning eni va bo'yisi qanday uzunlikda bo'lishi kerak?

- A) 12 m va 14 m; B) 6 m va 28 m ; C) 3m va 56 m






## MATEMATIKA ATROFIMIZDA

### 2-SAVOL

Qo'yxonani qurish uchun Bahrom nechta ustun qoqishi kerak?

